



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 160 (1759), 2026-yil 8-avgust, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON VA AQSH O‘RTASIDAGI ALOQALARNI YANADA MUSTAHKAMLASH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

7-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida O‘zbekiston rahbari Donald Trampni AQSH mustaqilligining 250-yilligi bilan yana bir bor tabrikhladi.

Prezident Tramp, o‘z navbatida, O‘zbekiston — Amerika munosabatlari misli ko‘rilmagan darajaga yetganini hamda ikki mamlakat yetakchilari o‘rtasida ishonchga asoslangan yaqin muloqot o‘rnatilganini ta’kidladi.

Oliy darajada erishilgan barcha kelishuvlarning izchil amalga oshirilayotgani mamnuvniyat bilan qayd etilib, strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

O‘zaro hamkorlikning deyarli barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan ikki tomonlama

muloqot va almashinuvlarning jadal sur‘atiga yuqori baho berildi.

Uch yillik iqtisodiy hamkorlik dasturi izchil amalga oshirilmogda. Amerika — O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston hududlari va Amerika shtatlari o‘rtasidagi hamkorlik kengayib bormogda. AQSH fuqarolari uchun vizasiz tartib joriy etilgani ishbilarmonlik aloqalarining faollashuviga xizmat qilmogda.

Fuqaro aviatsiyasi, avtomobilsozlik, tog‘-kon sanoati, infratuzilma, energetika, metallurgiya, sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar va boshqa sohalarda qo‘shma loyihalar amalga oshirilmogda.

Xalqaro ahamiyatga molik masalalar muhokama qilinar ekan, global xavfsizlikni ta‘minlash, xalqaro va mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish borasidagi sa‘y-harakatlarni davom ettirish muhim ekani ta’kidlandi.

Yetakchilar bo‘ljak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqildi.

Suhbat yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Donald Trampga o‘zi uchun qulay vaqtda rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelishni taklif qildi.

O‘ZA

SUN‘IY INTELLEKT EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda sun‘iy intellekt ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha erishilgan natijalar va istiqboldagi ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida O‘zbekiston sun‘iy intellektga tayyorlik bo‘yicha xalqaro reytingda 25 pog‘ona yuqorilab, 62-o‘ringa ko‘tarildi. 2030-yilga qadar yurtimizni mazkur reytingda dunyodagi eng ilg‘or 50 ta davlat qatoriga kiritish maqsad qilingan.

Shuningdek, sun‘iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmini 1,5 milliard dollarga yetkazish, infratuzilmani kengaytirish hamda 200 dan ortiq yangi loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari sohadagi texnologiyalar shiddat bilan o‘zgarayotganini ta’kidlab, jahon va mintaqadagi tendensiyalarni muntazam tahlil qilish, ilg‘or ishlanmalarni tezkor o‘zlashtirish va yangi tashabbuslarni ilgari surish zarurligini qayd etdi.

Avvalo, taqdimotda zamonaviy hisoblash infratuzilmasini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘tgan oyda “Raqamli hukumat” data-markazida AQSHning NVIDIA texnologiyalari asosidagi superkompyuter ishga tushirildi. U quvvati bo‘yicha jahon reytingida 321-o‘rinni egalladi. Bir oy ichida klaster yuklamasining 90 foizga yetgani mamlakatimizda hisoblash quvvatlariga talab yuqori ekanini ko‘rsatmogda.

Bugungi kunga qadar 24 million dollarlik zamonaviy hisoblash infratuzilmasi ishga tushirildi. Mavjud klasterni kengaytirish uchun yana 70 million dollar yo‘naltirish taklif qilindi. Qo‘shimcha mablag‘lar manbalari, zarur uskunalarni olib kelish muddatlari hamda Qoraqalpog‘istonda xorijiy investoerlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan data-markazlar loyihalari bo‘yicha axborot berildi.

Sun‘iy intellekt yechimlarining samaradorligi sifati ma‘lumotlar bazasiga bevosita bog‘liqligi ta’kidlandi. Shu bois, vazirlik va idoralardagi mavjud ma‘lumotlarni xatlovdan o‘tkazish, ularning to‘liqligi, ishonchligi va o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash, sohalar kesimida sifati ma‘lumotlar to‘plamlarini shakllantirish vazifasi qo‘yildi.

Joriy yilning o‘zida iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda sun‘iy intellekt asosida amalga oshiriladigan loyihalar sonini 100 tadan oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Tibbiyot, energetika, transport, bojxona, huquqiy xizmatlar, jamoat xavfsizligi, ekologiya va geologiya yo‘nalishlarida ishlab chiqilayotgan yechimlar taqdim qilindi.

Bu borada IT-Park rezidentlari, startaplar va 20 dan ortiq sun‘iy intellekt laboratoriyalari bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhimligi qayd etildi. Joriy yilda ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan rezidentlar sonini 300 taga, ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmini 2 trillion so‘mga, eksporti esa 160 million dollarga yetkazish kutilmogda.

Kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Bugungi kunga qadar 1,5 milliondan ortiq foydalanuvchi sun‘iy intellekt bo‘yicha maxsus sertifikat oldi. Shuningdek, 900 nafar rahbar, 3 mingdan ziyod davlat xizmatchisi, 1 ming nafar bank xodimi va 200 nafar maslahatchi maxsus kurslarda o‘qitildi.

Kelgusi ikki yilda “Besh million sun‘iy intellekt yetakchilari” loyihasini to‘liq amalga oshirish, o‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar va keng aholi qatamlari uchun zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Nukus, Samarqand, Termiz, Buxoro, Farg‘ona, Andijon, Guliston va Jizzax shaharlarida sohaviy xakaton va tanlovlar o‘tkazildi. “Sun‘iy intellekt

yo‘nalishida eng yaxshi startap” tanloviga start berildi. Bunday xakatonlarni barcha hududlarda tashkil etish topshirildi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlarining sun‘iy intellekt bo‘yicha maslahatchilari faoliyati ham muhokama qilindi. 500 nafar nomzod orasidan 222 nafar maslahatchi saralab olingan. Ushbu lavozimlarga xorijda ta‘lim olgan va zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan yosh mutaxassislarni keng jalb qilish, ularning ishini aniq natija va samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash zarurligi ta’kidlandi.

Maslahatchilar faoliyati, amalga oshirayotgan loyihalari va tashabbuslarini monitoring qilish hamda qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan alohida raqamli platformani ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Taqdimotda sun‘iy intellekt sohasidagi xalqaro hamkorlik istiqbollari ham ko‘rib chiqildi. Ma‘lumki, O‘zbekiston yaqinda WAICO — Sun‘iy intellekt sohasida hamkorlik bo‘yicha Butunjahon tashkilotiga ta‘sischi davlatlardan biri sifatida a‘zo bo‘ldi.

Endi mazkur tashkilotda ishtirok etish orqali ilg‘or texnologiyalar, katta til modellari va raqamli transformatsiya yechimlarini mamlakatimizda joriy etish, xorijiy texnologik kompaniyalar va ilmiy muassasalar bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha yangi tashabbuslarni ilgari surish zarurligi qayd etildi.

Prezidentimiz mutasaddilarga hisoblash quvvatlarini izchil oshirish, sohalarda amaliy loyihalarni ko‘paytirish, sifati ma‘lumotlar bazasini yaratish, iqtidorli yoshlar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha aniq topshiriqlar berdi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON QURUVCHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli quruvchilar, me‘mor va ustalar, muhandis va loyihachilar, mashinist va mexaniklar, muhtaram soha faxriylari!

Siz, azizlarni qutlug‘ kasb bayramingiz — Qurilish sohasi xodimlari kuni bilan chin qalbindan muborakbod etib, barchangizga samimiy va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Bugungi kunda qurilish sohasi Yangi O‘zbekistonning zamonaviy qiyofasini belgilaydigan g‘oyat muhim tarmoqqa aylanib borayotganini ushbu quvonchli ayyomda alohida e‘tirof etishimiz tabiiy, albatta. Chunki mamlakatimizda barpo etilayotgan, sizlarning fidokorona mehnatingiz, bilim va mahoratingiz mujassami bo‘lgan obod shaharlar, qishloq va mahallalar, yangi uy-joylar, yirik strategik obyektlar, zamonaviy korxonalar, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarni qurilish sohasi ishtirokisiz tasavvur etolmaymiz.

Hozirgi yillarda sohani tubdan isloh qilish, uni iqtisodiyotning drayverlaridan biriga aylantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, zamonaviy shaharsozlik va raqamli boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish bo‘yicha amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz ijobiy natijalar bermogda.

Bu haqda so‘z yuritganda, so‘nggi 9 yilda yurtimizda 210 million kvadrat metrdan ziyod bino va inshootlar, jumladan, 647 mingta, o‘tgan yilning o‘zida esa 135 mingta kvartiraga ega bo‘lgan uy-joylar barpo etilganini ta’kidlash lozim. Joriy yilda yana 140 mingta yangi kvartira foydalanishga topshiriladi.

2040-yilgacha

mamlakatimizda quriladigan uy-joylar sonini yiliga 280 mingtaga yetkazish, “Yangi O‘zbekiston” massivlarini 61 tadan 120 taga ko‘paytirishni reja qilganmiz.

Bu yil O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Burhoniddin Marg‘inoniy turizm markazi kabi noyob madaniy-ma‘rifiy inshootlarda qurilish va obodonlashtirish ishlarini yakuniga yetkazishda fidokor quruvchilarimizning hissasi beqiyos bo‘ldi.

Poytaxtimizdagi Yangi Toshkent, Toshkent viloyatidagi Nura’fshon, Andijon viloyatidagi Bobur, Samarqanddagi Shirin, Xorazmdagi Al Xorazmiy shaharlari kabi megaloyihalar mullaqo yangi muhandislik yechimlari, “yashil” qurilish tamoyillari bilan mamlakatimizning bunyodkorlik tarixida yorqin sahifa ochmogda.

Qadrli do‘stlar! Hozirgi yilda 3 million 500 mingdan ziyod kishi mehnat qilayotgan qurilish, qurilish materiallari sanoati va ularga yondosh sohalarda g‘oyat muhim islohotlar amalga oshirilmogda. Keyingi paytda qurilishga ruxsat berish bosqichlari 3 barobar, muddatlari esa 4 karra qisqartirildi. “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi asosida

24 ta zamonaviy elektron platforma ishga tushirilib, asosiy boshqaruv jarayonlari raqamlashtirildi. Barcha nazorat jarayonlari raqamli formatga o‘tkazildi.

Davlat xaridlari tizimida elektron tender platformasi yo‘lga qo‘yilgani ham shaffoflikni ta‘minlashda muhim

omil bo‘lmogda. Tarmoqda sun‘iy intellekt texnologiyalari faol joriy etilmogda.

Bularning barchasi sohada inson omilini qisqartirish, korrupsiya bilan bog‘liq xavf-xatarlarni bartaraf etish va qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgani bilan e‘tiborlidir.

Bugungi kunda barcha sohalar qatori qurilish borasidagi faoliyatni rivojlantirish, qurilish ishlari siflatini oshirish bo‘yicha ham oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Ularni amalga oshirishda o‘z hayotini el-yurtimizni obod va farovon qilishdek ezgu ishga bag‘ishlab kelayotgan soha xodimlarining bilim va tajribasi, kasb mahoratini oshirish, ularning mehnatini har tomonlama rag‘batlantirish bundan buyon ham diqqat-e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Sizlar o‘z burchingizni chuqur anglagan holda, xalqimiz uchun xavfsiz, qulay va farovon hayot muhitini yaratishga qaratilgan sharaflil faoliyatingizni hamisha yuksak sifat va mas‘uliyat bilan ado etasizlar deb ishonaman.

Barchangizni bugungi kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, sizlarga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat, ishlaringizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

Bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz bunyodkorlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

“YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI” KASBIY MAHORAT MILLIY TANLOVI G‘OLIBLARIGA

Aziz farzandlarim!

Qadrlil ustoz va murabbiylar!

Mamlakatimizda Prezident sovrini uchun ilk bor o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” kasbiy mahorat milliy tanlovida erishgan yutuqlaringiz bilan barchangizni chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

Vatanimizning bugungi shiddatli taraqqiyoti, hayotimizga kirib kelayotgan raqamli iqtisodiyot, zamonaviy korxonalar o‘z ishining ustasi bo‘lgan, raqobatbardosh kasb egalariini tayyorlash va rag‘batlantirishni talab etmogda.

Biz ana shu o‘tkir zaruratni hisobga olib hamda azaldan ilm va hunar egalariini e‘zozlab keladigan xalqimizning ezgu an‘analarini rivojlantirish maqsadida mazkur milliy tanlovni tashkil etdik.

Kasb-hunar sirlarini chuqur egallagan, puxta bilim va yuqori ko‘nikmaga ega, o‘z sohasida yangilik yaratadigan sizlar kabi navqiron yoshlarimizning bugungi erishgan natijalari bu qarorimiz naqadar to‘g‘ri bo‘lganini yana bir bor tasdiqlamogda.

Darhaqiqat, uch bosqichda o‘tgan ushbu nufuzli tanlovda minglab yoshlarimiz katta qiziqish va ishtiyiq bilan faol ishtirok etdi. Ayniqsa, tanlovning dastlabki — tuman va shahar bosqichida 124 ming nafardan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz o‘z iste‘dod va qobiliyatlarini namoyon etganlari barchamizni quvontiradi. Keyingi — hududiy bosqichda qatnashgan qariyb 7 ming nafar ishtirokchining 3 ming 500 nafari o‘zini o‘zi band qilgan mahalla yoshlari ekani e‘tiborlidir.

Yana bir muhim jihati — mazkur tanlov ko‘plab maktab bitiruvchilarining shaxsiy hayotida yangi sahifa ochgani, ya‘ni 22 ming nafar yigit-qiz uchun ishlash, ta‘lim olish yoki mehnat bozorida o‘z o‘rnini

topish imkoniyati paydo bo‘lganini ta’kidlash lozim. Xususan, mahalliy korxona va tashkilotlar tomonidan bo‘sh ish o‘rinlari taqdimoti o‘tkazilib, zarur kasbiy bilim va mahoratga ega bo‘lsa-da, hozircha ish topolmay yurgan qariyb 8 ming 900 nafar qatnashchiga ishlash uchun yo‘lanmalar berildi. Ta‘lim olish istagini bildirgan 4 ming 470 nafar ishtirokchi texnikumlarda o‘qish uchun tavsiya etildi. Chet ellarda ishlashni rejalashtirayotgan salkam 8 ming 340 nafar yoshlar xorijiy ish beruvchilar tomonidan o‘tkaziladigan tanlovlarga yo‘naltirildi.

Tanlov yakuniga ko‘ra, o‘nta kasb yo‘nalishida eng yuqori natijaga erishgan 120 nafar ishtirokchi g‘olib va sovrindor deb topildi. Bugungi marosimda tanlovning maxsus mukofotlari bilan taqdirlanayotgan ana shu yoshlarimizni chin dildan tabriklayman.

Fursatdan foydalanib, ularga mustahkam tayanch bo‘lib turgan mehribon va talabchan ustozlar, otalonalarga, ishlab chiqarish ta‘limi ustalari, amaliy mashg‘ulot rahbarlari va ekspertlarga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Shuningdek, tanlovni yuqori saviyada tashkil etishga hissa qo‘shgan vazirlik va idoralar, hokimliklar, mahallalar, ish beruvchi korxonalar, homiy va hamkor tashkilotlarga ham alohida tashakkur aytaman.

Aziz o‘g‘il-qizlarim!

Bugun oldimizda yanada mas‘uliyatli vazifa turibdi. Tanlov g‘oliblari va yuqori natija ko‘rsatgan ishtirokchilar orasidan O‘zbekiston terma jamoasini shakllantirib, ularning kasb-hunar bo‘yicha “WorldSkills International” xalqaro tanlovida munosib ishtirok etishi uchun tayyorgarlikni hozirdan boshlashimiz kerak. Shu maqsadda eng kuchli mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb etamiz, jamoa-

ni zamonaviy uskunalar, o‘quv-mashq bazasi bilan ta‘minlab, barcha zarur sharoitlarni yaratib beramiz.

Sizlar dunyodagi eng kuchli tengdoshlaringiz bilan munosib ravishda bellashib, mana shunday nufuzli kasbiy mahorat musobaqasida yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishingizga tilakdoshman.

Bu yo‘lda sizlarga yurtimiz tarixidagi go‘zal va betakror sivilizatsiya namunalarini yaratgan, ajoyib amaliy san‘at asarlari bilan dunyoni hayratga solib kelayotgan qo‘ligul usta va me‘morlarimiz, mohir hunarmandlarimizning boy merosi, hozirgi kunda ularning an‘analarini davom ettirib, zamon talablari asosida yangi bosqichga ko‘tarayotgan kasb egalaringning mahorat maktablari albatta kuch va ilhom beradi.

Men butun O‘zbekiston yoshlariga murojaat qilib aytmoqchiman: xalqimizning sizlarga bo‘lgan yuksak ishonchini oqlash uchun doimo izlaning, yangi bilim va texnologiyalarni egallang, xorijiy tillarni o‘rganing va kasbingiz bo‘yicha eng ilg‘or mutaxassis bo‘lib yetishing!

Zero, yoshlikda olingan ta‘lim va malaka bamisoli toshga o‘yilgan naqsh, kelajakdagi ulkan yutuqlar poydevoridir.

Sizlar o‘z mehnatingiz, bilim va ko‘nikmalaringiz bilan nafaqat oilangiz va jamoangiz, balki jonajon mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shasiz, Yangi O‘zbekistonda bunyod etadigan oltin avlod bo‘lib, uning shuhratini dunyoga tarannum etasiz deb ishonaman.

Yuksak g‘alaba barchangizga muborak bo‘lsin, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SOHA FIDOYILARI O‘Z KASBI VA MEHNATIDAN FAXR TUYADI

Qad rostlayotgan har bir inshoot, obod etilayotgan har bir maskan yillar o‘tib, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Shu ma’noda, keng ko‘lamli qurilish ishlari yangi binolar barpo etish bilan cheklanmay, insonlar hayoti siflatini yuksaltirish, hududlarni rivojlantirish va yurtimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qilmogda. Yangi xonadonlar oilalarga quvonch, obod maskanlar aholiga munosib turmush sharoiti bag‘ishlasa, yirik loyihalar mamlakatimiz kelajagi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilyapti.

▶ Davomi 2-betda





O‘zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kuniga



SOHA FIDOYILARI O‘Z KASBI VA MEHNATIDAN FAXR TUYADI



Sherzod HIDOYATOV,
qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vaziri

Boshlanishi 1-betda

O‘zgarishlar ko‘lamini, avvalo, aniq raqamlar namoyon etadi. So‘nggi 9-yilda mamlakatimizda 210 million kvadrat metrdan ortiq bino va inshootlar barpo etildi. 647 ming xonadonga yetkazish, “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 61 tadan 120 taga ko‘paytirish vazifasi belgilangan.

2016-yilda qurilish ishlari hajmi 30 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda 314 trillion so‘mga yetdi. Qurilish tarmog‘i iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va qator sohalar rivojiga xizmat qilayotgan strategik yo‘nalish sifatida mustahkamlanmoqda.

Erishilayotgan natijalar faqat barpo etilayotgan binolar yoki inshootlar bilan cheklanmaydi. Ular minglab oilalarning daromadini, farovonligi va barqaror turmushiga ham xizmat qilmoqda. Bugun qurilish va unga tutash tarmoqlarda 3,5 milliondan ortiq yurtdoshimiz mehnat qilayotgani buning yaqqol isbotidir.

So‘nggi yillardagi islohotlar qurilish tarmog‘ini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Qurilishga ruxsat berish jarayonlari 3 barobar, muddatlar 4 barobar qisqartirildi. Natijada tadbirkorlar va investorlar uchun qulay muhit shakllanib, yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaydi.

Sohada raqamlashtirish jarayonlari izchil davom etmoqda. “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi doirasida joriy etilgan

elektron platformalar jarayonlar ochiqligi va samaradorligini oshirmoqda. Elektron tenderlar, raqamli nazorat va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari sohada shaffoflik, adolatlari qabotat va tejankorlik tamoyillarini mustahkamlamoqda.

Bugungi bunyodkorlik ishlari yurtimizning iqtisodiy salohiyati bilan bir qatorda ma‘naviy va shaharsozlik qiyofasini ham yuksaltirmoqda. Joriy yilda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy-ma‘rifiy va turizm markazida amalga oshirilgan qurilish hamda obodonlashtirish ishlari ana shu ezu sa‘y-harakatlarning yorqin namunasi bo‘ldi.

Yangi shaharlar qurish mamlakatimiz shaharsozlik siyosatida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Yangi Toshkent, Nurafshon, Bobur, Ekoshahar, Shirin, Al Xorazmiy kabi yirik bunyodkorlik maskanlari zamonaviy muhandislik yechimlari, “yashil” qurilish tamoyillari va inson uchun qulay hayot muhitini ta‘minlashga qaratilgan yondashuv asosida barpo etilmoqda. Bu shaharlar kelgusi o‘n yilliklar taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

Xorazm viloyatida 130,5 gektar maydonda bunyod etilayotgan Al Xorazmiy shahrida 8 ming o‘rinli AT universitet, texnopark, innovatsiya markazlari hamda 5,7 mingdan ortiq xonadonli zamonaviy turar joylar qad rostlamogda. Ushbu shahar ilm-fan, innovatsiya va yuqori texnologiyalarni o‘zida mujassam etgan yangi rivojlanish nuqtasiga aylanishi kutilmoqda.

Andijonda 4 ming gektar maydonni egallagan Bobur shahri 411 ming aholi uchun mo‘ljallangan. Bu yerda 40 ming xonadonli 2 mingta ko‘p qavatli uy-joy barpo etiladi. Hozirga qadar 3940 xonadon va 40 dan ortiq savdo hamda servis maskani foydalanishga topshirildi, shaharda 25 mingdan ziyod aholi yashamoqda. Boburiylar merosiga bog‘ishlangan tematik bog‘ barpo etilayotgani esa milliy tarix va zamonaviy shaharsozlik uyg‘unligining yana bir ifodasidir.

Samarqanddagi Shirin shahri, Nurafshondagi yangi shaharcha, Qo‘qon va Marg‘ilonidagi turar joy massivlari, Qamashida tashkil etilayotgan yangi maskanlar ham hududlarni mutanosib rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar izchil davom etayotganini ko‘rsatmoqda.

Eng muhimi, bu shaharlar faqat turar joylar bilan cheklanmaydi. Ular bilan birga zamonaviy maktablar, bog‘chalar, shifoxonalar, oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy markazlar, xizmat ko‘rsatish maskanlari, bog‘lar va dam olish hududlari ham barpo etilmoqda. Ana shunday yondashuv hududlarning barqaror rivojlanishi, aholi uchun munosib turmush sharoitini ta‘minlash va zamonaviy shaharsozlik qiyofasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda kechayotgan yangilanishlar jarayonida quruvchi va soha mutaxassislarining mehnati alohida o‘rin tutadi. Ular o‘z kasbiga sadoqat bilan yondashib, yurtimiz qiyofasini o‘zgartirayotgan, xalqimiz uchun qulay sharoitlar yaratayotgan bunyodkorlik ishlariga munosib hissa qo‘shmoqda. Ana shu sharaflil mehnat yo‘lidan borayotgan quruvchilarimiz o‘z kasbidan faxr tuyib, yurt ravnaqiga xizmat qilayotganini yuksak mas‘uliyat deb biladi.



Inson qadri uchun

Bu yil xalqimiz O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini yuksak g‘urur va iftixor bilan qarshi olmoqda. O‘tgan o‘ttiz besh yil davomida mamlakatimiz murakkab va sharaflil taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Ayniqsa, so‘nggi yillardagi keng ko‘lamli islohotlar mustaqillik g‘oyalarni yangi mazmun bilan boyitdi. “Inson qadri uchun” degan ezu tamoyil davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida amaliy mezonga aylandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning ijtimoiy davlat ekanini mustahkamlangani mamlakat taraqqiyotidagi tarixiy burilish bo‘ldi. Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar qariyb uch barobar ko‘paygani ham islohotdarning aniq siyosiy-huquqiy yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Konstitutsiyamizda pensiyalar, nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori rasman belgilangan eng kam iste‘mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emasligi mustahkamlandi. Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarning huquqlari davlat himoyasida ekanini belgilandi. Davlatning nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta‘lim olishi, kasb egallashi va ish bilan ta‘minlanishiga ko‘maklashish majburiyati konstitutsiyaviy kafolat darajasiga ko‘tarildi.

Bu normalar xalqimizning referendum orqali bildirgan irodasi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi yangi ijtimoiy kelishuv ifodasidir. Endi ijtimoiy siyosat sohasidagi har bir qaror, byudjet mablag‘larining har bir so‘mi, har bir davlat dasturi insonning munosib hayoti va real ehtiyoji nuqtayi nazaridan baholalanayotir.

So‘nggi yillarda ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan ikki baravar oshgani, kam ta‘minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi besh barobar ko‘paygani, nogironligi bo‘lgan bolalar parvarishi bilan band shaxslar uchun yangi nafaqa turlari joriy etilgani ana shu siyosatning amaliy natijalaridir.

Ayniqsa, Prezidentimizning tegishli farmoni bilan qabul qilingan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi kambag‘allikni qisqartirish ishlari yangi bosqichga olib chiqdi.

Dastur doirasida oilalarni barqaror daromad manbai bilan ta‘minlash, bandlikni oshirish, kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy xizmatlarni manzilli tashkil etishga qaratilgan choralar natijasida 2025-yilda kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik darajasi esa 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Bu raqamlar iqtisodiy o‘shish natijalarini aholi farovonligiga aylantirishga qaratilgan siyosatning amaliy samarasini yaqqol ko‘rsatadi.

Kambag‘allik masalasi ochiq tan olinishi va uni qisqartirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi yangi O‘zbekistonga xos siyosiy jasorat namunasidir. Muammoni yashirish emas, balki uning aniq sabablarini o‘rganish, har bir oilaning imkoniyat va ehtiyojlaridan kelib chiqib individual yechim belgilash, odamlarni kasb-hunar, doimiy ish o‘rni, tadbirkorlik va daromad manbai bilan ta‘minlash ustuvor vazifaga aylandi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturining mazmun-mohiyati ham aholini faqat nafaqa va bir martalik yordamlar bilan qo‘llab-quvvatlash emas, balki oilalarning iqtisodiy mustaqilligi va barqaror daromadini ta‘minlashdan iborat.

Islohotlar asosida aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida tarqoq va bir-birini takrorlovchi mexanizmlar o‘rniga yagona boshqaruv tizimi shakllantirildi. Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilishi sohada davlat siyosatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy

xizmatlar sifatini oshirish va mas‘uliyatni aniq belgilashga xizmat qildi.

Agentlik zimmasiga nogironligi bo‘lgan shaxslar, voyaga yetmagan bolalar, xotin-qizlar, og‘ir hayotiy vaziyatga tushgan oilalar, yoshlar, yolg‘iz keksalar bilan ishlash hamda ijtimoiy ta‘minot dasturlarini yuritish kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar yuklatildi. Bu ijtimoiy himoyaga idora manfaatini emas, insonning yagona hayotiy holati nuqtayi nazaridan yondashish imkonini berdi.

Tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, mahallalarda ijtimoiy xodimlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi xizmatlarni odamlarga yaqinlashtirdi. Endilikda ehtiyojmand fuqaro turli idoralarda eshigini taqillatib yurishi shart emas, uning holati mahallada o‘rganilib, individual reja asosida zarur xizmat va yordamlar tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi. Bu “davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyilining ijtimoiy sohadagi aniq ifodasidir.

Ijtimoiy himoyaning yangi modeli faqat moddiy yordam bilan cheklanmaydi. U profilaktika, reabilitatsiya, kasbga o‘qitish, bandlikka ko‘maklashish, psixologik va huquqiy yordam, parvarish, ijtimoiy moslashuv va jamiyatga integratsiya kabi xizmatlarni qamrab oladi. Bunday yondashuv yordamga muhtoj insonning muammosini vaqtinchalik yengillatish emas, uni og‘ir hayotiy vaziyatdan barqaror olib chiqishga qaratilgan.

2030-yilgacha aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi qabul qilinishi sohani uzoq muddatli maqsadlar asosida rivojlantirishga zamin yaratdi. Ayni paytda islohotlarning yangi bosqichida aniq va o‘lchanadigan vazifalar belgilanmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2022-yil 5-fevraldagi “2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan yil yakuniga qadar kambag‘allik darajasini 2,8 foizgacha, ishsizlik darajasini 4,5 foizgacha pasaytirish, 1 million aholini doimiy ish o‘rinlariga joylashtirish, 4 million aholi, shu jumladan, 263 mingta kambag‘al oilani daromadini oshirishga qaratilgan xizmatlar bilan qamrab olish vazifalari belgilandi. Ushbu maqsadlar ijtimoiy siyosatni umumiy ko‘mak choralaridan har bir oila uchun barqaror natija yaratishga, davlat organlari faoliyatini esa aniq ko‘rsatkichlar va shaxsiy mas‘uliyat asosida baholashga o‘tkazmoqda.

Ijtimoiy davlat tamoyilining hayotga tatbiq etilishi, avvalo, uning mustahkam huquqiy poydevoriga bog‘liq. So‘nggi yillarda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta‘minlash, keksalar va ehtiyojmand aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, pensiya ta‘minoti, bandlik, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam sohaslarida qator muhim qonunlar qabul qilindi. BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi ratifikatsiyasi qilinishi milliy qonunchilik va amaliyotni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirishda muhim qadam bo‘ldi.



kuzatuvchilar bilan 900 dan ziyod ishtirokchini jamlashi kutilaypti.

— Bu biz uchun juda katta sharaf ham mas‘uliyat. Zero, mezbonlik borasida qator rivojlangan mamlakatlar, xususan, Yevropa va Amerika davlatlari biz bilan bellashgan, — dedi qarimlari texnologiyalar vaziri o‘rinbosari Rustam Karimjonov. —

Xo‘sh, bu O‘zbekistonga nima beradi? Birinchi navbatda, xalqaro hamjamiyatdagi nufuzimiz ortadi. Tasavvur qiling, 97 ta davlat o‘z vakillarini “O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan xalqaro informatika olimpiadasiga yuboraymiz”, deb aytadi. Rivojlangan davlatlarda qayta-qayta vatanimiz nomi yangraydi, uni millionlab odamlar ehsitadi. Biroq biz uchun eng muhimi — xalqaro maydonlarga intilish yoshlarimiz orasida umummilliy harakatga aylanishi. Ertamiz egalari, ayniqsa, kelajak kasblari bo‘lgan dasturlash sohasida ko‘proq o‘qisin. ATni keng o‘rgansin. Ilm-fandagi salohiyatimiz ham jahoniy dovruq taratasa, qanday yaxshi!

Buton dunyoning nigohi bizda ekan, davlatimiz rahbari ishonch bildirayotganidek, avvalo, ilmiy salohiyatimizni ko‘rsata olishimiz kerak. Zero, mezbonlik bizga katta ustunlik ham beradi. Bitta emas, ikkita tema jamoa bilan qatnashish huquqiga egamiz. Qolaversa, buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy yurtining xalqaro informatika olimpiadasiga mezbonlik qilishi ham tarixiy va ramziy ahamiyatga ega. Demak, yoshlarimizda allomaga munosib vorislik hissi ustuvor bo‘lmog‘i kerak. Buning uchun ularga barcha sharoitlar yaratib berilgan.

Milliy tema jamoamizni tayyorlash ishlari o‘tgan yilning noyabridan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Hududlardan saralangan 100 o‘quvchi orasidan 2 ta milliy tema jamoaga 4 nafardan, jami 8 a‘zo tanlab olindi. Mahalliy ustozlardan tashqari Qozog‘iston, Polsha va Ruminiyadan xalqaro ekspertlar jalb qilinib, 10 ga yaqin o‘quv-mashg‘ulot yig‘ini tashkil etildi. Bu gal o‘quvchilarning texnik tayyorgarligi bilan birga psixologik tayyorgarligiga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Terma jamoa sardori Sunnatilla Hojiyevning aytishicha, vakillarni yirik olimpiadalarda birinchi bor qatnashayotgani yo‘q. Ularning hammasi yaxshi natijalarga munosib. Qolaversa, o‘quvchilarimiz tajribali mahalliy va xorijli murabbiylar rahbarligida murakkab algoritmik masalalarni yechish, kodni optimallashtirish hamda musobaqa muhitida vaqtni to‘g‘ri taqsimlash ko‘nikmalarini intensiv ravishda mustahkamladi. O‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari ularning mantiqiy fikrlashini charxlab, o‘quvchi yoshlarni xalqaro darajadagi har qanday murakkab bellashuvga to‘liq tayyorlagani ko‘nglimizni to‘ldirdi.

Olimpiadani tashkil etishda xavfsizlik, transport, mehmonlarni kutib olish va joylashtirish, ovqatlanirish, texnik infratuzilma hamda madaniy dasturlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 10-avgust kuni poytaxtimizda tantanali ochiladigan musobaqaning asosiy jarayonlari 11-13-avgust kunlari bo‘lib o‘tadi. 12-14-avgust kunlari tarixiy-madaniy meros va turistik obyektlarga sayohatlar tashkil qilinadi. Sakkitiz kun davomida Toshkent shahri yosh dasturchilar, murabbiylar va xalqaro ekspertlarning muloqot maydoniga aylanadi.

15-avgust kuni esa musobaqaning asosiy g‘oliblari va natijalari e‘lon qilinadi. Umid qilamizki, 38-xalqaro informatika olimpiadasi O‘zbekistonning texnologik va ta‘lim salohiyatini xalqaro maydonda yana bir karra munosib namoyish etadi. Yoshlarni dasturlash, matematika va STEM yo‘nalishlariga qiziqirish, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Xushxabar

Joriy yil mamlakatimiz ilm-fani tarixiga nufuzli olimpiadalar bo‘lib o‘tgan davr sifatida muhrlanadigan bo‘ldi. Bir oy avval 58-xalqaro kimyo olimpiadasiga mezbonlik qilgan bo‘lsak, 9-16-avgust kunlari 38-xalqaro informatika olimpiadasiga eshik ochamiz. Ilk bor O‘zbekistonda o‘tadigan mazkur olimpiadaga 2015-yildan qatnasha boshlaganimizni nazarda tutsak, qisqa fursatda mezbonlik huquqini olganimiz quvonarli.

Albatta, bu o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Ke-yingi yillarda ta‘lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan shiddatli islohotlar samarasi o‘laroq, biz xalqaro tadbirlar ishtirokchisiga emas, faol tashkilotchisiga aylanib boryapmiz. Akademik salohiyatimiz sezilarli o‘sayotganida esa davlatimiz rahbarining 2024-yil 30-sentabrda-“Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori dasturlamal bo‘lmoqda.

Xalqaro informatika olimpiadasi maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi eng nufuzli sport





EKOLOGIK BARQARORLIK – iqtisodiy rivojlanish va sog‘lom hayot asosi



**Xayrullo G‘AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Ekologiya va
atrof-muhitni muhofaza qilish
masalalari qo‘mitasi raisi**

Mustaqillik xalqimizning erkin va farovon hayot qurish yo‘lidagi qat‘iy irodasi, milliy yuksalish sari boshlangan buyuk taraqqiyot yo‘lidir. Bugungi kunda barcha hududlarda O‘zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligi keng nishonlanmoqda. “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” ezu g‘oyasi ostida o‘tayotgan ushbu qitlug‘ bayram nafaqat bosib o‘tilgan yo‘lni sarhisob qilish, balki yangi O‘zbekistonning ertangi taraqqiyoti uchun yanada yuksak marralarni belgilab olish imkoniyatini ham beradi.

Bugun ekologik xavfsizlik masalasiga tabiatni muhofaza qilishning tor doirasidagina emas, balki inson salomatligi, aholi farovonligi, iqtisodiy o‘lish, investitsiyaviy jozibadorlik va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini ta‘minlaydigan muhim strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Eng muhimi, yangi O‘zbekistondagi barcha ishlohtlar markazida inson qadri turibdi. Chunki inson uchun munosib hayotni sog‘lom va musaffo atrof-muhitsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois, so‘nggi yillarda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish hamda kelajak avlod uchun sog‘lom tabiatni asrab qolish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda har bir insonning qulay atrof-muhitda yashash huquqi mustahkamlab qo‘yilgani, davlat zimmasiga esa atrof-muhitni muhofaza qilish va tiklash, Orolbo‘yi ekologik tizimini saqlash bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyat yuklatilgani bu boradagi siyosatning huquqiy asosini yanada mustahkamladi. Bejiz 2025-yil mamlakatimizda Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e‘lon qilinmadi. Mazkur qaror taraqqiyotimizning ekologik yo‘nalish izchil va uzoq muddatli strategiyaga aylanganining yana bir yorqin ifodasidir.

Bugungi ishlohtlarning barchasi yagona maqsadga — inson uchun yanada qulay hayot muhitini yaratish, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash hamda kelajak avlodlarga ekologik barqaror mamlakatni meros qilib qoldirishga qaratilganini ko‘ramiz. Bu esa O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim mezonlaridan biri sifatida ekologik barqarorlik g‘oyasi tobora mustahkam qaror topayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Yurtimizdagi har bir ishloht, eng avvalo, mustahkam huquqiy asoslarga tayanadi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ham aynan shu tamoyil hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

So‘nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezidentimizning farmon va qarorlari, sohada amalga oshirilgan institutsional o‘zgarishlar ekologik siyosatni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Endi ekologik xavfsizlikka faqat davlat idoralari vazifasi emas, balki butun jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Buning yorqin tasdiq i sifatida keyingi o‘n yilda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 25 ga yaqin yaxlit qonun qabul qilinishini qayd etish o‘rinli. Ularning aksariyati yangi. Jumladan, “Qayta tiklanuvchi energiya

manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi, “Ekologik audit to‘g‘risida”gi, “Gidrometeorologiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Organik mahsulotlar to‘g‘risida”gi, “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi, “Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi qonunlar sohaning huquqiy negizini zamon talablari asosida mustahkamladi.

Ayniqsa, 2025-yil ekologiya sohasi uchun tom ma‘noda huquqiy yangilanishlar yili bo‘ldi. Ekologik ekspertiza va strategik ekologik baholash tizimi takomillashtirilishi, Orlux konvensiyasiga qo‘shilish, issiqxona gazlari chiqarilishini cheklash bo‘yicha huquqiy mexanizmlar joriy etilishi hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor Suv kodeksining yangi tahrirda qabul qilinishi sohaning mutlaqo yangi rivojlanish bosqichiga o‘tganidan dalolat beradi.

Qonun ustuvorligini ta‘minlash masalasi faqat huquqiy hujjatlar qabul qilish bilan cheklanmaydi. Eng muhimi, ularning amalda to‘liq va samarali ijrosini ta‘minlashdir. Shu maqsadda ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik kuchaytirildi, nazorat mexanizmlari yanada takomillashtirildi.

Institutsional ishlohtlar o‘z mazmun-mohiyati bilan alohida ahamiyatga ega. Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi tashkil etilishi, Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi — **ekopolitsiya** faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, ekologik jamg‘armalarning moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilishi ekologik boshqaruv samaradorligini tubdan oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugun davlatning ekologik siyosati faqat nazorat qilish bilan cheklanmaydi. Uning asosiy maqsadi tabiatni muhofaza qilish madaniyatini qaror toptirish, qonunlarga hurmat ruhini mustahkamlash va har bir fuqaroni atrof-muhit uchun mas‘ul etib tarbiyalashdan iborat.

Ekologik siyosatning yana bir muhim xususiyati raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotganidir. Atmosfera havosi, suv resurslari, chiqindilar, biologik xilma-xillik holati bo‘yicha monitoring tizimlarining elektron platformalarga o‘tkazilishi, geoaxborot texnologiyalari va sun‘iy yo‘ldosh ma‘lumotlardan keng foydalanish boshqaruv sifatini mutlaqo yangi darajaga olib chiqmoqda. Eng muhimi, raqamlashtirish ochiqlik va shaffoqlikni ta‘minlamoqda. Ekologik ma‘lumotlardan erkin foydalanish imkoniyati kengayib, jamoatchilik nazorati kuchaymoqda. Bu esa davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tashqi siyosatida ekologik diplomatiya alohida strategik yo‘nalishga aylandi. Bugun yurtimiz nafaqat milliy ekologik muammolarni hal etayotgan davlat, balki mintaqaviy va global ekologik xavfsizlik kun tartibini shakllantirishda faol ishtirok etayotgan tashabbuskor mamlakat sifatida yangi xalqaro hamjamiyat e‘tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

Keyingi yillarda ekologik hamkorlik sohasida erishilgan natijalar bu fikrning amaliy tasdiq‘idir. Bugungi kunga qadar O‘zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi 16 ta xalqaro konvensiyaga qo‘shildi. Ularning eng so‘nggisi sifatida 2025-yil 11-martda **Orlux konvensiyasi** ratifikatsiya qilindi. Bu qadam mamlakatimizda ekologik axborotning ochiqligi, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va ekologik adolati ta‘minlash borasidagi ishlohtlarni yanada mustahkamladi.

Mazkur xalqaro majburiyatlar iqtisodiy taraqqiyot uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqining “GSP+” imtiyozli savdo tizimi doirasidagi 11 ta ekologik va ijtimoiy konvensiya talablari bajarilishi O‘zbekistonga 6000 dan ortiq turdagi mahsulotni Yevropa bozorlariga bojsiz eksport qilish imkoniyatini bermoqda.

Davlatimiz rahbarining BMT minbaridan ilgari surayotgan tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotgani ham O‘zbekiston nufuzi yuksalayotganidan dalolat. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasida ko‘plab rezolyutsiyalarning bir ovozdan qabul qilinishi mamlakatimiz diplomatiyasining muhim yutug‘i bo‘ldi.

Bu rezolyutsiyalarning aksariyati **ekologiya va barqaror rivojlanishga bag‘ishlangan**. Ular orasida Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi, “Markaziy Osiyo global ekologik tahdidlar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash”, “Barqaror o‘rmon xo‘jaligi asosida o‘rmonzorlashtirish va o‘rmon tiklash bo‘yicha harakatlar dekada” rezolyutsiyalari alohida ahamiyatga ega.

Keyingi ikki yilda Samarqand shahri ekologik diplomatiyaning xalqaro muloqot maydoniga aylandi. 2025-yil aprel oyida Samarqand iqlim forumi, iyun oyida esa 7500 dan ortiq ishtirokchini jamlagan birinchi “ECO EXPO Central Asia” xalqaro ekologik texnologiyalar ko‘rgazmasi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. YUNESKOning 2025-yil oktabr-noyabr oylarida o‘tkazilgan 43-Bosh konferensiyasi mamlakatimizga yuksak baho berib, O‘zbekiston xalqi va hukumatiga minnatdorchilik bildiruvchi maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. Noyabr-dekabr oylarida esa CITES konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 20-sessiyasi ham yuqori saviyada tashkil etildi.

Samarqandning xalqaro ekologik markaz sifatidagi nufuzi 2026-yil 30-may — 6-iyun kunlari yanada mustahkamlandi. Ana shu kunlarda bu yerda Global ekologik fondning (GEF) 8-assambleyasi, GEF kengashi yig‘ilishi va “ECO EXPO Central Asia”ning ikkinchi sessiyasi bir vaqtning o‘zida o‘tkazildi.

186 davlat vakillari ishtirok etgan mazkur nufuzli tadbir yakunida umumiy qiymati 520 million dollardan ortiq “yashil” loyihalar bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Jumladan, O‘zbekiston suv va yer resurslarini boshqarish dasturi uchun qariyb 80 million dollar miqdorida grant mablag‘lari jalb qilindi. Eng muhimi, mamlakatimiz Global ekologik fondga donor davlat sifatida qo‘shilishga tayyorligini bildiradi. Bu O‘zbekistonning xalqaro ekologik moliyalashtirish tizimida faqat yordam oluvchi emas, balki ekologik taraqqiyotga hissa qo‘shuvchi davlat sifatidagi maqomini namoyon etdi.

Orolbo‘yini rivojlantirish borasidagi yondashuv mutlaqo yangi mazmun kasb etdi. Agar avvalgi yillarda asosiy e‘tibor ekologik fojia oqibatlarini yumshatishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda mazkur hudud barqaror taraqqiyot, “yashil iqtisodiyot”, ekoturizm va innovatsion rivojlanishning yangi modeli sifatida shakllanmoqda.

Amaliy natijalar ham salmoqli. 2018-yil dekabr dan buyon Orol dengizining quillon tubi va Orolbo‘yi hududlarida 2,1 million gektardan ortiq maydonda “yashil qoplamalar” barpo etildi. Birgina 2025-yilda Qoraqalpog‘istonda 115 ming gektar, Buxoro viloyatida 58,1 ming gektar, Navoiyda 61,6 ming gektar va Xorazmda 15 ming gektar o‘rmonzor yaratildi.

Bu raqamlar ekologik siyosatimiz faqat milliy maqsadlarga emas, balki butun mintaqa barqarorligi va global ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilganini yaqqol namoyon etadi.

Mamlakatimizda bugun ekologik siyosatni iqtisodiy taraqqiyotdan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi uchun sog‘lom hayot muhitini yaratish vazifalari iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashtirilmoqda. Shu bois, so‘nggi yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Bu borada qabul qilingan strategik hujjatlar mamlakatimizda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, resurs tejovchi texnologiyalarni ommalashtirish va uglerod chiqindilarini qisqartirish bo‘yicha mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi.

Energetika sohasidagi ishlar qisqa vaqtida aniq amaliy natijalarni ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda quyosh va shamol energetikasi energetika tizimimizning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

2026-yil may oyi holatiga ko‘ra, yurtimizda umumiy quvvati 3930 megavatt bo‘lgan 15 ta quyosh va 1652 megavatt bo‘lgan 5 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirilib, jami qayta tiklanuvchi quvvat 5,6 gigavatt dan oshdi. 2025-yilning o‘zidagina elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 86,7 milliard kilovatt-soatga yetib, 6 foiz ko‘paydi, shundan qayta tiklanuvchi manbalar hisssasi 16,8 milliard kilovatt-soatni (29 foiz o‘lish) tashkil etdi. Quyosh va shamol stansiyalari ishlab chiqargan energiya bir yilda 2,1 baravar oshib, 10,5 milliard kilovatt-soatga yetdi. Bu esa 3,2 milliard kub metr tabiiy gazni tejash va atmosfera 4,7 million tonna zararli chiqindi chiqishining oldini olish imkonini berdi. 2030-yilga qadar “yashil” energiya ulushini 54 foizga, energiya saqlash tizimlari quvvatini esa 4,5 gigavattga yetkazish rejalashtirilgan.

Dekarbonizatsiya yo‘nalishida O‘zbekiston Parij bitimi doirasidagi milliy hissasini yangilab, avvalgi 35 foizli majburiyat o‘miga 2035-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligidagi issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 50 foiz qisqartirish kabi yanada kuchliroq maqsadni belgiladi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda sanoat va chiqindilarni boshqarish sohasi muhim o‘rin egallamoqda. Bugungi kunda yurtimizda har yili hosil bo‘ladigan maishiy chiqindilar hajmini qisqartirish, ularni qayta ishlash darajasini oshirish hamda ikkilamchi resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.

Chiqindilarni boshqarish sohasida aylanma iqtisodiyot tamoyillari izchil qaror topmoqda. Prezidentimizning 2025-yil 24-martdagi farmoni bilan 2030-yilga qadar mavjud poligonlarni 50 foiz qisqartirish, shuningdek, “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyili asosida ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilarning kengaytirilgan mas‘uliyati tizimini joriy etish belgilandi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida xususiy sheriklar 2025-yilning o‘zida 386,5 milliard so‘mlik investitsiya majburiyatlarini bajardi.

Ekologik ishlohtlar muvaffaqiyatida “yashil” moliyalashtirish mexanizmlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda

xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik izchil kengayib, ekologik va iqlim loyihalarini moliyalashtirish hajmi sezilarli darajada oshdi.

Eng muhimi, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish siyosati inson manfaatlariga xizmat qilmoqda. Toza havo, barqaror energiya ta‘minoti, ekologik xavfsiz ishlab chiqarish, chiqindilar hajmi qisqarishi va resurslardan oqilona foydalanish — ularning barchasi aholi turmush sifati va kelajak avlodlar farovonligini ta‘minlashga qaratilgan.

Suv resurslarini boshqarish ham o‘zgardi, endi bu masala faqat qishloq xo‘jaligi yoki melioratsiya sohasining vazifasi emas. Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv xavfsizligini ta‘minlash mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan strategik ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda.

Bu borada 2025-yil 30-iyulda qabul qilingan Suv kodeksi mamlakat suv siyosati tarixida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, unda ilk bor ekologik maqsadlarda majburiy suv chiqarish tushunchasi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Endi suv resurslarining muayyan qismi tabiiy ekotizimlar, ko‘llar, daryolar va to‘qay o‘rmonlarini saqlab qolish maqsadida ajratilishi qonun darajasida kafolatlandi. Bu esa mamlakatimizda inson manfaatlari bilan birga tabiat manfaatlari ham huquqiy muhofaza qilinaotganining amaliy ifodasidir.

Suv tanqisligining oldini olish va har tomchi suvdan samarali foydalanish bo‘yicha ishlar salmoqli natijalar bermoqda. 2025-yilda 886,6 ming gektar ekin maydonida suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi. 613,5 ming gektar yer lazer uskunalari yordamida tekislandi, bu esa suv sarfini sezilarli qisqartirish imkonini bermoqda.

Aholini sifati ichimlik suv bilan ta‘minlash ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri. Zero, inson salomatligi, hayot sifati va hududlarning barqaror rivojlanishi, eng avvalo, toza ichimlik suv bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, so‘nggi yillarda mazkur sohaga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 10 barobar oshib, 2,7 milliard dollarga yetdi. Natijada 7,7 million aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlandi, 11 million aholining suv ta‘minoti yaxshilandi, 39 ming kilometr ichimlik suv va 3,2 ming kilometr oqova suv tarmoqlari qurildi hamda rekons-truksiya qilindi. 3,4 mingga ichimlik suv va 295 ta oqova suv inshooti hamda nasos stansiyasi barpo etildi yoki yangilandi. Buning samarasida markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 2025-yil yakuniga kelib, 82,8 foizga yetkazildi, oqova suv xizmatlari qamrovi esa 22,3 foizni tashkil etdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 2030-yilga qadar markazlashgan ichimlik suv ta‘minotini 85 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan. Bu maqsadlar mamlakatimizda inson salomatligi va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan uzoq muddatli siyosatning mantiqiy davomidir.

Ekologik ishlohtlarning muhim mezon ularning inson hayotidagi amaliy samarasidir.

Bugun ilgari surilayotgan har bir tashabbus, har bir loyiha va har bir dastur aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda.

2025-yilda mamlakatimiz bo‘yicha 265 milliondan ortiq daraxt va buta ko‘chati ekildi. Shundan 213 milliondan ziyodi “yashilmakon. eco” elektron platformasida raqamli ro‘yxatga olinib, har bir daraxt uchun uning turi, yoshi va joylashuv koordinatalarini o‘z ichiga olgan elektron “pasport” shakllantirildi. Bu ekologik sohada raqamli boshqaruvning mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarilganini anglatadi.

155 ta shaharda “yashil bog‘” va “yashil jamoat parklari” tashkil etildi. Shuningdek, shahar va tumanlarda 475 kilometr soylari sayr ko‘chalari hamda 378 kilometr sog‘lomlashtirish yo‘laklari barpo qilinib, ular bo‘ylab 545 ming tup daraxt ekildi. 2026-yil aprel oyida Toshkent viloyatida ilk Milliy dendrologiya bog‘iga asos solingan esa ko‘kalamzorlashtirish siyosati yangi bosqichga chiqqanini ko‘rsatadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni kengaytirish borasida tarixiy natijalarga erishildi. Agar ishlohtlar boshlangan davrda bu ko‘rsatkich mamlakat hududining 8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, 6,4 million gektarga, ya‘ni 14,3 foizga yetkazildi. O‘rmon fondi yerlari va boshqa muhofaza shakllari bilan birga hisoblaganda esa ushbu ko‘rsatkich 22,8 foizni tashkil etmoqda.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida zamonaviy raqamli monitoring tizimi shakllantirildi. Bugungi kunda 400 ga yaqin avtomatlashtirilgan monitoring stansiyasi orqali havo sifati uzluksiz kuzatilmoqda va barcha ma‘lumotlar “Air Monitoring Uzbekistan” yagona axborot tizimiga integratsiya qilingan.

2025-yilda 172 ta sanoat korxonasida chang-gaz tozalash uskunalari modernizatsiya qilindi, 75 ta korxonada esa lokal oqova suvni tozalash inshootlari qurildi.

Ekologik toza transportni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Elektromobillar xaridi uchun 16 foizgacha imtiyozli kreditlar joriy etildi. 2026-yil 22-iyulda esa Toshkent viloyatida mamlakat tarixidagi ilk “yashil” avtomobil yo‘li — Toshkent — Samarqand muqobil avtomobil yo‘li qurilishiga tamal toshi qo‘yildi.

Bugun qabul qilinayotgan har bir qonun, ilgari surilayotgan har bir tashabbus va amalga oshirilayotgan har bir milliy loyiha yagona va ezu maqsadga — aholining qulay atrof-muhitda yashash huquqini ta‘minlash, tabiatni asrab-avaylash va kelajak avlodlar uchun barqaror taraqqiyot poydevorini yaratishga xizmat qilmoqda.

Umuman, “yashil iqtisodiyot” va ekologik xavfsizlik davlat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu yutuqlar yurtimizning BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga sodiqligini, tanlangan taraqqiyot yo‘lining to‘g‘riligini yana bir bor namoyon etadi.

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” ezu g‘oyasi bugun ekologiya sohasida ham amaliy ifodasini topmoqda. Ekologik barqarorlikni ta‘minlash yo‘lidagi izchil ishlohtlar yangi O‘zbekistonning bugungi taraqqiyoti va kelajak farovonligining mustahkam kafolatidir.

Dolzarb mavzu

nima uchun muhim?

Bir mahsulotning xorij bozorida paydo bo'lishi ortida ko'zga ko'rinmaydigan,

MAMLAKATNING DUNYO BOZORIDAGI OVOZI



ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi.



**MEN TANIGAN
O'ZBEKISTON**

B. D. Davlatov

Kitobi taqdimoti

Zamondosh

Qadim Karmananing Jaloyir qishlog'i juda ko'p ilmu donishlar, shoiru fozillarga beshik bo'lgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ashurali Jo'rayev ana shu qishloq farzandi. Zarafshon daryosining toshqin po'rtanalar, mehnatkash, bag'rikeng jaloyirliklarga xos tantilik uning xarakteriga ko'chgan. Qishloq maktabida o'qib, mamlakat boshkenti bo'lgan Toshkentda turib o'zbek jurnalistikasiga salmoqli ulush qo'shayotgan zabardast publitsist, mohir yozuvchining ijodi shu millat taqdiri, uning o'tmishi va istiqboli, vurtodshlar orzu-armonlarining ifodasi bo'lib maydonga chiqdi.



Soz – mo'tabar,
SO'Z – ULUG', SO'Z – XALOSKOR

“O‘zbekiston bor-yo‘g‘i to‘rt yil ichida kamida to‘rt barobar rivojlanibdi va misli shu darajada ilgari lab ketibdi!”. (Muallifning 2022-yilda O‘zbekistonga kelganidagi hayrat so‘zlari).

kinchi iqtibos — xalq nchining qayta tugʻilishi

Bu kitobning eng zalvorli, teran va
ta'sirli joylaridan biri. Muallifdan "nimani
ko'rdingiz?" deb so'raganlarida, u bir
zum ham ikkilanmay aytadi: **"Ishonchni
ko'rdim!"**.

Har qanday moddiy taraqqiyotdan-
da ulush'roq bo'lgan bu ma'naviy
muyg'onlik — xalqning o'z tarixiga,
o'z shaxsiyatiga, o'z davlati va
Prezidentiga bo'lgan ishonchi — yangi
O'zbekistonning chinakam poydevoridir.
Odamlar ko'chalarida dadil, xotirjam,
boshini baland ko'tarib yura boshladi;
yoshlarning ko'zlarida umid chaqnadi.
Bu bir millatning qaddini rostlashi edi",
 deydi muallif.

Uchinchi iqtibos — xalqparvarlik e'tirofi

Bu bir jumlada butun bir davlat boshqaruvi falsafasi, inson qadriini qutq'ushga qaratilgan yangi davr mafkurasiining mohiyati jamlangan. Inson mamlakatimizda davlat xalq xizmatida! Bu shunchaki shior emas, bu — amalda hayotga tatbiq etilayotgan 'ulug' insonparvarlik tamoyili. Muallif aytgan shu — "inson omilini markazga qo'yuvchi konseptual yondashuv"da — O'zbekiston Yetakchisining boshqaruvi san'atidagi nuktadonlikni ko'radi.

“Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash, xususan, urush va mehnat faxriylari, keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning sog‘lom va mazmunli hayot kechirishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan ishlarimiz izchil davom ettirilmoqda” (Prezident Shavkat Mirziyoyevning 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigidan).

Yozuvchining bu satrlarga bergan sharhida bir davlat rahbarining ota-bobolarga bo'lgan ehtiromi, kelasa avlodga bo'lgan mehri va inson qadriga bo'lgan sadoqati nurlanib turadi. "Inson qadri" — ikkigina so'z yangu O'zbekistonning bosh maqsadiga, barcha islohotlarining mezoniga aylandi. Prezident faxriylarini, nuroniy otaxonlarini, mehnatshahramonlarini unutmaslik, ularni e'zozlash orqali butun bir millatga ibrat darsini beradi. Bu bejiz emas, kim o'z o'tmishini qadrlasa, o'sha kelajakka munosib bo'ladi. Mualliflarning bu qadrshtunoslikni O'zbekistonning boshqa ko'plab davlatlardan ajratib turuvchi fazilati deb alqaydi.

Beshinchi iqtibos — duo

Bu butun bir davlat strategiyasining ma'naviy poydevorini ochib beruvchi muvotariq duo, samimiy iltijo! Muallifi bu so'zlarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'z missiyasini xalqqa, Vatanga va butun insoniyatga bag'ishlagan fidokorona xizmat burchi sifatida anglashini ko'radi. Bu jumladan tavozebor, Yaratagana shukronalik bor. Ana shu ma'naviy arqon — ezgu niyatni ilohiy barakat bilan bog'lash yangi O'zbekiston to'liq insonlolariga betakror ruh va barakabaxsh etmoqda. Toshkentda qad rostlagan muhtarman Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda qayta bunyod etilgan Imom Buxoriy majmuasi mana shu e'tiqod va qadrxunoslikning toshga bitilgan abadiy timssollari. Muallif Prezidentimiz haqida "BMT minbaridan turib Imom Buxoriy nomi bil butun dunyoga tanitilgan ilk davlat rahbari bo'ldi", deydi.

Xulosa oʻrnida

Kemal Yavuz Atamanning “Men tanigan O‘zbekiston!” kitobi bir qardosh xalq vakilining O‘zbekistonga, uning 35 yillik to‘yiga atagan eng go‘zal to‘yonasi bo‘libdi. Bu kitob bizni o‘z Vatanimizni Kemal qardoshining shaydo ko‘zlari bilan qayta ko‘rishga, uning qadriga yanada teranroq yetishga undamoqda.

Aziz yurtdoshlar! Siz yana bir bor Vatanimizning bugungi yuksalishidan faxrlanib, ertangi kunlarga ishonchingizga kuch olishni istasangiz, bu kitobni albatta o'qing. Sevilka Vatanimizga Kemal Yavuz Atamanning ko'z'lari bilan bir qarang, kitobning har sahifasidan bir haqiqat taraliib turadi: yanig' O'zbekiston — tarixiy xotiraning tiklanishi, millatning qayta uyg'onishi va Uchinchi Renessans sari shaxdam odimlayotgan mamlakat.

Aziz yurtimizga ko'z tegmasin.

Muhammadjon QURONOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti direktori o'rinbosari,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Ashurali Jo'rayev — mohir publitsist. Uning matbuotda e'lon qilingan maqolalari, kitoblarida davrning muhim masalalari o'z ifodasini topgan va o'quvchilar e'tiborini qozongan. Adib 1983-1996-yillarda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bo'lim mudiri lavozimida ishlagan. O'sha davrdagi ekologik fojialar haqidagi ko'plab maqolalari e'lon qilingan.

Qalamkash ijodiy faoliyatining yana bir qirasi — badiiy ijod. Uning “Dastlabki o‘tqanushu” nomli ilk hikoyasi 1976-yilda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Ne‘mat Aminovning oq yo‘li bilan “Guliston” jurnalida bosilgan. Mustaqillikdan keyingi yillarda yozuvchi qalamiga mansub “O‘q uzgan kim?”, “Senga ko‘ngil bersam”, “Dil gavhari”, “Tanimading-a?”, “Maysalar uy‘ongan to‘ng”, “Sahifaga sig‘magan satrlar”, “Esar Jayhun shamollari” kabi kitoblar nashr qilindi.

Yozuvchining "Vijdon qo'ng'irog'i" kitobi xalqimizning sevimli yozuvchisi Ne'mat Aminovning hayoti va ijodiga oid hayotiy kuzatuvlardan iborat. Ashurali Jo'rayev yozuvchini o'ziga ustoz deb biladi, uning sevimli dodi, mahoratini o'quvchiga tushunarli, sodda tilda ifodalab beradi. Adabiyotshunos N.Jumaxo'ja shu haqda bunday yozadi:

“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Ashurali Jo‘rayev Ne‘mat Aminov adabiy xazinasi munosib qadrlangan ijodkorlardan. “Vijdon ko‘ng‘irog‘i” kitobida muallif adib hayoti va ijodini ilmiy yoritishni maqsad qilgan. Undan ma‘lumotlar talqinlashga xotiralarga asoslangan. Ashurali Jo‘rayev moziy mulkiga aylangan tabassum zargarining hayoti va ijodini tarixiy-adabiy jarayon silsilasida tasvirlagan. Ne‘mat akaning kim ekan, adib sifatida qanday



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-846.
29345 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

“Do’ppisi yo’q dunyo” to’plamida yozuvchi fikrni hayotiy hodisalarni teran kuzatadi. “Non va dori” hikoyasida bunday falsafiy mushohada beriladi: “U har kuni ishga boradi va horib-tolib qaytadi. Avval do’konga kirib, uzoq saralab non xarid qiladi. So’ng ko’chaning narigi tomonidagi dorixonaga kirib, talashib-tortishib, dori sotib oladi. Avval maza qilib non yeydi, so’ng huzur qilib dori ichadi”.

Ijodkorning o'zbek adabiyoti va jurnalistikasi oldidagi xizmatlari katta. Iqtidorli adib bugun qutlug' 70 yoshini qarshi olmoqda. Ushbu sanaga tufta sifatida uning shaxsiy asarlaridan iborat kutubxonasi yana ikkita nashr bilan boyidi. O'tgan oy oxirida Ashurali Jo'rayevning "Oltin ovozlار" kitobi chop etilgani haqida eshitgan edik. To'plamda ustozning uzoq yillik ijodidan saralab olingan, asosan o'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan, hamon samarali ijod qilib kelayotgan mashhur san'atkorlarning sermazzom hayoti, sharaffi va mashaqqatli ijod yo'li, el sevgan qo'shiqlarning yaratilish tarixi haqidagi maqolalari jamlangan.

Kuni kecha yana bir xushxabar tarqaldi: «Batyrg Zikirov: uzbekskiy solovei» kitobi rus tilida salmoqli addacha chop etildi va ilk nusxalari muallif qoʻliga yetib keldi. Prezidentimizning 2020-yil 2-dekabrdaagi «Oʻzbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida»gi, 2021-yil 16-oktabrdaagi «Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada sanʼati institutini tashkil etish toʻgʻrisida»gi qarorlari eʼlon qilindi. Oʻsha yili Toshkent shahrining qoʻgʻmarkazida, soʻlim xiyobonda Botir Zokirov haykalining tantanali ochilishida Prezidentimiz ishtirok etgani va nutq soʻzlagani millat yetakchisining madaniyat hamda sanʼatga yuksak eʼtiborining yana bir yorqin dalili boʻldi.

Ushbu kitob rus tiliga tarjima qilinib, Botir Zokirovning yurtimiz tashqarisidagi millionlab ixlosmandlariga tortiq etilishi zamirida ham ana shu e'tibor mujassam.

XX asr o'zbek publitsistikasi va nasri taraqqiyotida Ashurali Xo'rayevning alohida o'rni borligini haqli ravishda e'tirof etmoq joiz. Uning badiiy publitsistikasi va esselari teran nigoh ila tasvirlangani, falsafiy mushohada kengligi bilan ajralib turadi. Hikoyalarda yozuvchi qahramonlarning oddiy o'y-xayollarini orqali zamondoshlarining turar xarakterlarini tasvirlaydi. U doim so'zga sodiq, so'z oldida o'zini mas'ul biladi va bunday yozadi: "So'z'ni hech qachon uvul qilmang. So'zning gunohiga hech qachon qolmang. So'z bir kuni, albatta, o'ch oladi. So'z — mo'tabar, so'z — ulug', so'z — xaloskor!"

Muhiddin KALONOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока”
gazetalari tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy